



*О'zbekiston Respublikasi Oliy  
va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
Al-Xorazmiy nomidagi Urganch  
Davlat universiteti fizika-  
matematika fakulteti amaliy  
matematika va informatika  
ta'lim yo'nalishi 302-guruh  
talabasi Abdullayeva  
Halimaning sotsiologiya  
fanidan "Yaponiya davlati  
ijtimoiy hayoti" mavzusidagi  
mustaqil ishi.*



ЯПОНИЯ



MyShared

## ❖ REJA:

1. Geografik tuzilishi
2. Tarixi
3. Xalqaro aloqalar
4. Sanoat sohasi
5. Xo`jaligi
6. San`at sohasi
7. Me`morchiligi
8. Ijtimoiy hayot
9. Milliy madaniyati
10. Sporti





- Yaponiya juda go'zal davlat. U Osiyoning shundoqqina sharqiy qismidan tashqarida joylashgan. Yaponiyaliklar ertalab quyosh chiqishini birinchi bo'lib kutib olishadi. Shuning uchun ham u "kunchiqar mamlakat" deb ataladi.








Uning maydoni  
399,389 km<sup>2</sup>.

Mamlakatning ko'p  
maydoni tog'lar bilan  
qoplanga.

Yaponiyadagi eng  
baland tog', balandligi  
3,776 metrga teng  
bo'lgan Fuji tog'idir.  
Bu yerda vulqonlar  
va zilzilalar ko'p sodir  
bo'lib turadi va hali  
30 dan ortiq  
so'nmagan vulqonlar  
mavjud.





- **Tinch okean sanoat mintaqasi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan rayon** bo'lib hisoblanadi. Bu mintaqa Tokio qo'ltig'idan Osaka qo'ltig'igacha cho'ziladi. Aslida Tokaydo megalopolisini tashkil qilgan bu hududning relyefi nisbatan tekis. Bu tekislik Tinch okeani bo'ylab o'rtacha 15 — 65 km. li tor yo'nalishda 600 km. dan ortiq masofaga cho'zilgan.





- **Yoqilg'i-energetika** sanoatida gidro, geotermal, quyosh, dengiz elektr stansiyalari ham o'z hissasini qo'shsalar-da, asosiy ishni import yoqilg'ilar asosida ishlaydigan IES va AES lar bajaradi. Mamlakat har yili 200 mln. t. ga yaqin neftni import qiladi. Shu sababli Yaponiya elektr energetikasida tobora AES lar hissasi ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatda 30 dan ortiq atom elektr stansiyalari qurilgan. 2003 yilda 950 mlrd kVt/soat elektr energiya ishlab chiqarildi.

- **Metallurgiya sanoati.** Yaponiya po'lat ishlab chiqarish hajmiga ko'ra jahonda (Bir yilda 90 mln. tonnadan ortiq) yetakchilik qilmoqda. Taraqqiy etgan organik **sintez kimyosi** korxonalarini kabi metallurgiya markazlari ham asosan, dengizbo'yi hududlari bo'ylab marjon kabi tizilgan holda joylashgan.



Avtomobilsozlikda Yaponiya ulkan yutuqlarga ega. U yiliga 12 - 13 mln. dan ortiq avtomobillar (shuning 8 mln. dan ortig'i yengil avtomobillar) ishlab chiqaradi va jahonda birinchi o'rinda turadi.



- Yaponiyada birinchi temir yo'li 1872-yili tashkil qilinga va uning birinchi safari Tokyodan Yokohomaga bo'lgan. Yaponiyada arzon va qulay transport vositalari mavjud. Eng yirik yapon tramvay kompaniyasi JNRdir. U o'zining tezkorligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari ya 150 ta kichikroq hususiy temir yo'llar ham mavjud. Tokyo, Osaka, Nagoya, Koba, Sapporo va Yokohomada metrolar qatnovi yo'lga qo'yilgan.





- Hozirgi davr Yaponiya iqtisodiyotining faxri va ramzi **elektronika sanoati** ekanligini butun olam biladi. Ayniqsa, radioelektronika sanoati — rangli televizorlar, videomagnitofonlar, radiotexnika vositalari ishlab chiqarishda ustunlikka ega.



- Qishloq xo'jaligi yuqori rentabelligi va mehnat unumdorligi bilan ajralib turadi. Ishlov beriladigan yerlar umumiy maydonining 11 foizini tashkil qilganligi uchun Yaponiyada qadimdan ekin maydonlaridan tejamkorlik bilan foydalanishga o'rganishgan.



- Yaponiya dehqonchilik mamlakatidir. Uning yetakchi tarmog'i dehqonchilikdir. Don xo'jaligida sholikorlikning o'rni alohidadir. Sholi jami ekin maydonlarining yarmiga yaqinida ekiladi va yiliga 10 – 12 mln. t. sholi tayyorlanadi. Shuningdek, bug'doy, soya, turli sabzavot va bog'dorchilik tarmoqlari ham ancha ahamiyatli.








- **Tashqi aloqalar** iqtisodiy hayotiy ahamiyatga ega. Buning sababi mamlakat iqtisodiyotining ko'p sohalari deyarli butunlay import xom-ashyolarga qarab qolganligidir. Yaponiya, asosan, sanoat xomashyolarini import qiladi va iste'molga tayyor mahsulotlarni eksportga chiqaradi.



- Yaponiya jahonning juda ko'p mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni olib boradi. Ular orasida eksportining  $\frac{1}{3}$  va importining  $\frac{1}{4}$  qismi AQSh hissasiga to'g'ri keladi.






- Yaponiyaning O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi iqtisodiy aloqalari ham rivojlanib bormoqda. U O'zbekiston iqtisodiyotiga tobora ko'p investitsiya kiritmoqda. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi va Sho'rtan gaz - kimyo kompleksini investitsiyalashda, Yaponiya faol qatnashdi.



- Yaponiyadan texnologiya vositalari, tayyor iste'mol mahsulotlari, aloqa kommunikatsiya vositalari O'zbekistonga keltirilayotgan boisa, O'zbekistondan Yaponiyaga tobora ko'p paxta va ipaktolasi, tog'kon, metallurgiya sanoati mahsulotlari, turli iste'mol mahsulotlari eksport qilinmoqda.





Yaponiya mamlakati.

- Yaponlar go'sht va sut mahsulotlari iste'mol qilishda yevropaliklardan qolishmaydi, Bu holat mamlakatda chorvachilikning rivojlanishiga katta e'tibor berishni talab etadi. Hozirda chorvachilikning qoramolchilik, cho'chqachilik, broyler parrandachiligi, hovuz baliqchiligi, pillachilik kabi tarmoqlari yaxshi rivojlangan.








Muhim marosimlardan biri Bon festivalidir. Bu marosim Buddaviylik diniga e'tiqod qiluvchilar tomonidan nishonlanib, o'limga hurmat-ehtirom ko'rsatishdan iborat. Odamlar bu kuni ajdodlar ruhi uyiga qaytadi deb ishonishadi va ularni kutib olish uchun chiroqlar yoqiladi, ular uchun dasturxon tuzaladi.





❖ **Yaponiyada  
nishonlanuvchi  
bayramlar:**

- 1-yanvar-Yangi yil kuni;
- 15-yanvar-"Katta odamlar" kuni;
- 11-fevral yaponlar millat bo'lib shakllangan kun;
- 21-mart-bahorgi tengkunlik;
- 29-aprel-imperatorning tug'ilgan kuni;
- 3-may-Konstitutsiya kuni;
- 5-may-O'g'il bolalar kuni;
- 24-sentabr-kuzgi tengkunlik;
- 10-oktabr-Sport-sog'lik kuni;
- 3-noyabr-madaniyat kuni;
- 23-noyabr-ishchilarning shukrona bildirish kuni.

- 
- Yaponiyada ovqatga ko'p pul ketadi, ayniqsa, pishloq, non, yog' va guruchga ko'p pul ketadi. Har bir yapon ovqatining asosiy qo'shimchasi bo'lgan guruch faqatgina mahsus do'konlardagina sotiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari mahalliy bozorlarda sotib olinadi. Ular bir haftalik ovqat uchun masallig'larni sotib olishdan ko'ra har kungi ovqatga masallig'lar sotib olish uchun alohida bozorga chiqishadi.



❖ Yapon bolasi quyidagi tizim bo'yicha ta'lim oladi:

1) 3-6 yosh bog'cha;

2) 6-12 yosh boshlang'ich maktab;

3) 12-15 yosh boshlang'ich o'rta maktab, undan so'ng esa o'z hohishiga ko'ra yoki 15-20 yosh biror kasb-hunar kollejida, yoki 15-18-yuqori o'rta ta'lim olishi mumkin;

5) 18-20 yosh o'smirlar kolleji yoki 18-21-yosh universitet;

6) 21 yoshdan aspiranturada o'z o'qishini davom ettirishlari mumkin.







❖ Boshqa millatlar singari yaponlar dam olish kunlarini sport bilan shug'ullanish bilan ham o'tkazishadi. Sumo-Yaponiyadagi eng qadimgi sport turi. Bu sport turi 728-yili tashkil topgan va o'sha yili Yaponiyada birinchi turnir o'tkazilgan.

Yaponiyada yana G'arbona sport turlari ham rivojlangan. Masalan, beysbo'l, golf. Beysbol bu mamlakatga 1874-yili Amerikadan kirib kelgan. Golf esa 1903-yili Grenvich Naval kollejida o'qib kelgan Yaponiya fuqarosi tomonidan kirib kelgan.



# Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Sotsiologiya” o’quv uslubiy majmua  
Urganch-2015
2. [www.geografiya.uz](http://www.geografiya.uz)
3. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yaponiya>





E'TIBORINGIZ

UCHUN  
RAHMAT!!!

RAHMATI!!!

UCHUN

E'TIBORINGIZ